



## THE INFORMATION ENVIRONMENT AND SOCIO-PHILOSOPHICAL PROBLEMS IN THE FORMATION OF YOUTH HISTORICAL CONSCIOUSNESS

**Dilnoza Innatovna Asadova**

Senior Lecturer, Department of Philosophy

Tashkent State University of Economics

Email: [dilnoza-asadova@mail.ru](mailto:dilnoza-asadova@mail.ru)

Tashkent, Uzbekistan

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** historical consciousness, information environment, selective memory, socio-philosophical construct, ideological filtration, epistemic manipulation, critical thinking.

**Received:** 19.11.25

**Accepted:** 20.11.25

**Published:** 21.11.25

**Abstract:** This study explores the socio-philosophical dimensions of how Uzbekistan's contemporary information environment influences the formation of historical consciousness among youth. Rather than a neutral collection of past facts, historical consciousness is approached as an ideologically charged and value-laden construct shaped by selective memory, normative state narratives, and the epistemic frameworks of the media and education systems. The dominance of mono-narrative discourse, ideological filtration of historical data, and limited cultivation of critical thinking contribute to the emergence of mythologized or simulacral historical perceptions. The article underscores the methodological necessity of investigating historical consciousness as an axiological and discursive phenomenon within a broader socio-cognitive matrix.

## AXBOROT MUHITI VA YOSHLAR TARIXIY ONGINI SHAKLLANTIRISHDAGI MUAMMOLAR

**Dilnoza Innatovna Asadova**

Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti

"Falsafa" kafedrasi katta o'qituvchisi

[dilnoza-asadova@mail.ru](mailto:dilnoza-asadova@mail.ru)

Toshkent, O'zbekiston

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** tarixiy ong, axborot **Annotatsiya:** Mazkur tadqiqotda

muhi, selektiv xotira, ijtimoiy-falsafiy konstruktsiya, ideologik filtratsiya, epistemik manipulyatsiya, tanqidiy tafakkur.

zamonaviy O'zbekiston axborot makonining yoshlar tarixiy ongini shakllantirishdagi epistemologik, aksiologik va ontologik o'ziga xosliklari ijtimoiy-falsafiy kontekstda tahlil etiladi. Tarixiy ong – bu nafaqat o'tmishga oid faktlar yig'indisi, balki jamiyat tomonidan tanlab olingan, ideologik filtratsiyadan o'tgan va qiymat kontekstida konstruksiyalashgan bilimlar tizimi sifatida talqin qilinadi. Axborot oqimlarining ideologik yuklanishi, rasmiy tarixiy narrativlarning dominantligi va ta'lim vositalaridagi tanqidiy fikrlashdan yiroqlik yoshlar ongida “selektiv xotira” va “simulyakrlashgan tarix” holatini yuzaga keltirmoqda. Shu bois, maqolada tarixiy ongni faqat kognitiv strukturaviy mexanizm emas, balki ijtimoiy-aksiyologik fenomen sifatida o'rganishning metodologik zarurati asoslanadi.

## ИНФОРМАЦИОННАЯ СРЕДА И СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИСТОРИЧЕСКОГО СОЗНАНИЯ МОЛОДЕЖИ

*Дилноза Иннатовна Асадова*

*Старший преподаватель кафедры «Философия»*

*Ташкентский государственный экономический университет*

Email: [dilnoza-asadova@mail.ru](mailto:dilnoza-asadova@mail.ru)

*Ташкент, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** историческое сознание, информационная среда, селективная память, социально-философская конструкция, идеологическая фильтрация, эпистемологическая манипуляция, критическое мышление.

**Аннотация:** Настоящее исследование посвящено социально-философскому анализу механизмов формирования исторического сознания молодежи в условиях современной информационной среды Узбекистана. Историческое сознание представляется не как нейтральное отражение прошлого, а как ценностно-насыщенная конструкция, сформированная под влиянием идеологических фильтров и институциональных нарративов. Селективность памяти, дефицит плюрализма, а также ограниченность критического мышления в образовательной системе способствуют возникновению симулякральных форм осмысления истории. В связи с этим, в статье обосновывается необходимость изучения исторического сознания в интеграции с аксиологическим, гносеологическим и дискурсивным подходами.

**Kirish.** Zamonaviy O‘zbekistonda tarixiy ong va aksiologik dunyoqarash shakllanishining ijtimoiy muammolari masalasi ijtimoiy falsafa kontekstida murakkab va ko‘p qirrali fenomen bo‘lib, u jamiyat ongining turli darajalari, madaniy meros, modernizatsiya bosqichlari va tarixiy xotiraning qayta talqini bilan bevosita bog‘liq. Ushbu masalaning falsafiy tahlili zamonaviy O‘zbekiston ijtimoiy ongida yuz berayotgan transformatsiyalarni chuqur tushunishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot va muhokamalar.** Tarixiy ong ijtimoiy ongning alohida shakli sifatida inson va jamiyatning o‘tmishga nisbatan munosabatini ifodalaydi. U ikki asosiy darajaga ega: kundalik (empirik) va nazariy (ilmiy-falsafiy). Bu ikki daraja o‘rtasidagi o‘zaro munosabat zamonaviy jamiyatning madaniy barqarorligi va milliy xavfsizligini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega [1. 3-10]. Shu bilan birga, aksiologik dunyoqarash inson va jamiyat uchun muhim qadriyatlar tizimining shakllanishi orqali vujudga keladi. Post-postmodern davrda qadriyatlar nisbiyligi aksilideologik ong shaklining hukmronligiga olib kelgan. Bu esa ijtimoiy ongda qadriyatlar inqirozini keltirib chiqargan [2. 128-133].

O‘zbekiston tarixiy taraqqiyotida o‘tmishdagi totalitar mafkura, jumladan, sovet davridagi ateistik dunyoqarash orqali xalq ongiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. 1930-yillardagi sovet mafkurasi tarixiy ong va diniy qadriyatlarga qarshi qaratilgan repressiv usullar orqali shakllantirilgan bo‘lib, bu ongda sekulyarizatsiya va marksistik-ateistik nazariyalarni chuqur o‘rnatgan [3]. Biroq, mustaqillik yillarida tarixiy ongni milliy qadriyatlarga asoslangan holda tiklash jarayoni boshlandi. Bu jarayon qadimiy va islomiy merosga, mashhur faylasuf va tabiblarga (masalan, Ibn Sino, Farobiy) tayanadi va zamonaviy bioetika, huquqiy ong, madaniy qadriyatlar shakllanishida aks etmoqda [4. B.501-511].

Tarixiy ongni shakllantirishda mifologik ongning kuchayishi, ayniqsa yoshlar orasida, ideologik manipulyatsiyalarga olib kelishi mumkin. Bu esa aksilmodernizatsiya xavfini kuchaytiradi [5. B.3-10]. Shu sababli, tarixiy ong va qadriyatlarni shakllantirishda nazariy, ilmiy yondashuv asosiy rolni o‘ynashi zarur. Yuqorida qayd etilgan fikrlar milliy ongning rivojlanishi va ijtimoiy barqarorlik uchun tarixiy va aksiologik ongni uyg‘un tarzda shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi. Bunda falsafa va tarixiy tafakkur vositalaridan keng foydalanish, shuningdek, qadimiy meros va zamonaviy yondashuvlar integratsiyasi muhim rol o‘ynaydi.

Zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tafakkur kontekstida axborot muhiti — bu oddiy vosita emas, balki epistemik makon, jamiyatning o‘z-o‘zini anglash modeli va tarixiy ongning konstruktiv mezonidir. Tarixiy ongning shakllanishi insoniyatning madaniy xotirasi, milliy identiteti va fuqarolik pozitsiyasi kabi murakkab strukturaviy konstruksiyalar bilan chambarchas bog‘liqdir. Ayniqsa, posttotalitar O‘zbekiston jamiyatida tarixiy ongni shakllantirishdagi axborot muhitining

ijtimoiy-madaniy roli favqulodda sezilarli bo'lib, bu holatning tahlili faqatgina tarixshunoslik yoki pedagogika emas, balki chuqur falsafiy–aksialogik yondashuvni talab etadi.

Axborot muhitida tarixning qanday tasvirlanayotgani masalasi, V. Vindelband tomonidan ilgari surilgan “idiografik bilimlar” nazariyasiga ko'ra, qadriyatlar mezonida shakllanadi [6. B. 25]. Shu ma'noda, O'zbekistondagi axborot muhitida tarixiy ma'lumotlar ideologik filtratsiyadan o'tkazilgan, selektiv va normativ holatda taklif qilinmoqda. Bu selektivlik esa yoshlar ongida tarixiy haqiqat emas, balki “zaruriy tarixiy tasavvur”ni shakllantiradi. Aynan mana shu holat tarixiy bilimning gnoeseologik obektivligi muammosini yuzaga keltiradi, chunki, G. Rikkert ta'biri bilan aytganda, tarix “obektiv voqealik emas, balki qadriyatli tafakkur mahsulidir” [7:103].

O'zbekistonning mustaqillik davridagi tarixiy-normativ narativlarida davlat g'oyaviy paradigmasi asosida “buyuk ajdodlar” konstruksiyasi shakllantirildi. Bu esa, M. Sheler ta'kidlaganidek, qadriyatli determinatsiyaning muayyan shakli bo'lib, ijtimoiy ongda “selektiv xotira” fenomenini vujudga keltiradi [8: 141]. Bunday axborot muhiti orqali shakllangan tarixiy ong, M. Blok tomonidan ishlab chiqilgan “savol–javobli tarixiy fakt” modelidan kelib chiqib, ideologik buyurtmaviy savollarga javob bo'lgan faktlar orqali konstruksiyalanadi [9: 57]. Ya'ni, faktlar tarixiy voqealikdan emas, balki savolning mazmuniy–qadriyatli xarakteridan kelib chiqadi. Bu esa yoshlar tarixiy ongining bevosita manipulyatsiyaga ochiqqligini ko'rsatadi.

Ijtimoiy-falsafiy jihatdan qaralganda, bu jarayon ontologik ravishda tarixiy obektning mavjud emasligi (ya'ni, o'tmishning qayta mavjud bo'la olmasligi) bilan bog'liq. Falsafiy epistemologiyada bu muammo, ayniqsa, R. Dj. Kollingvud va B. Kroche tomonidan ishlab chiqilgan konstruktivizm doirasida muhim o'rin tutadi. Ularning ta'kidlashicha, tarix - bu mavjud bo'lmagan obektni fikr bilan qayta qurishdir [10: 65]. Demak, tarixiy ong ijtimoiy ongning mahsulidir va bu mahsulot qanday axborot muhiti orqali uzatilayotgan bo'lsa, shunday shaklga ega bo'ladi. O'zbek axborot makonida esa bu “mahsulot” ko'pincha yakka markazlashgan, normativ, pluralizmga yopiq bo'lgan axborot diskursi orqali yaratilmoqda. Misol uchun, umumiy o'rta ta'lim dasturlarida, O'zbekiston tarixiga oid darsliklar va ommaviy axborot vositalarida muqim “sheroatlik o'tmish” modeli dominant bo'lib, bu model yoshlar ongida o'tmishni faqatgina g'alabalar va ulug'vorliklar kontekstida qabul qilishga sabab bo'lmoqda. Bu esa, X. Uayt tomonidan ta'riflangan “tarixiy mifologizatsiya” jarayonining aynan o'zidir [11: 91]. Natijada, yoshlar tarixni bilmaydi, balki unga ishonadi. Ularning tarixiy xotirasi - bu bilimsizlikdan ko'ra ishonchga asoslangan mifdir. Epistemologik nuqtai nazardan, bunday mifologik ongning shakllanishi bilish faoliyatida qadriyatli determinantlikning rolini tasdiqlaydi. Bu borada L. A. Mikeshina tomonidan ilgari surilgan “aksiosub'yektivlik” konsepsiyasi muhim

ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Uning fikricha, ijtimoiy bilim hech qachon qadriyatlardan xoli emas va aynan shu qadriyatlar bilish predmetining shaklini, tuzilmasini va mazmunini belgilaydi [12: 260].

Shunday ekan, O'zbekistonda yoshlar tarixiy ongini shakllantirishda kuzatilayotgan muammolar, avvalo, axborot muhiti orqali taqdim etilayotgan bilimning monologik, qadriyatli selektivlikka asoslangan, pluralizm va tanqidiy tafakkurga yopiq bo'lgan tabiati bilan bog'liq. Bu muammolarni bartaraf etish, ijtimoiy-falsafiy yondashuvda dialogik axborot muhitini shakllantirish, alternativ tarixiy pozitsiyalarning mavjudligini tan olish, tanqidiy fikrlash madaniyatini rivojlantirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Zero, A. A. Ivin ta'kidlaganidek, tarixiy haqiqat - bu nafaqat obektiv tafakkur, balki qadriyatlar orqali idrok etilgan bilish modelidir [13: 39].

Axborot muhitining zamonaviy jamiyatda tutgan o'rni tobora murakkablashib borayotgan sharoitda, yoshlar tarixiy ongini shakllantirish jarayoni ko'p qirrali, murakkab va ziddiyatli tus olmoqda. Mazkur jarayon ijtimoiy-falsafiy kontekstda ko'rib chiqilganda, bu masala nafaqat axborot oqimlarining mazmuniy xususiyatlari bilan, balki ijtimoiy ong strukturasidagi chuqur siljishlar, identitet masalalari va tarixiy haqiqatni konstruksiyalash mexanizmlari bilan ham uzviy bog'liqdir. Ayniqsa, O'zbekiston misolida olib boriladigan tanqidiy tahlil mazkur muammoning konkret tarixiy-siyosiy sharoitlarda qanday ko'rinish olishini, qanday tahdidlar va imkoniyatlar bilan yo'g'rilganini aniqlab beradi.

Bugungi axborot jamiyati sharoitida yoshlar ijtimoiylashuvi endilikda avvalgidek an'anaviy institutlar (oilalar, maktab, universitet) orqali emas, balki ommaviy kommunikatsiya vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn media resurslari orqali kechmoqda. Bu esa ularning tarixga nisbatan qarashini tubdan o'zgartiruvchi omilga aylanmoqda. Chunki axborotlar oqimi ideologik jihatdan neytral emas; u doimo muayyan dunyoqarash, qadriyatlar tizimi, siyosiy manfaatlar kontekstida shakllanadi [14: 17]. Shu nuqtai nazardan, axborot muhiti yoshlar tarixiy ongini shakllantirishda nafaqat vosita, balki faol ijtimoiy agent sifatida harakat qilmoqda.

O'zbekiston misolida bu holat ayniqsa dolzarb bo'lib, mustaqillik davridan boshlab tarixni qayta yozish, milliy g'urur, tarixiy adolatni tiklash singari vazifalar davlat siyosatining muhim qismiga aylangani ma'lum. Shu bilan birga, ushbu tarixiy rekonstruksiya jarayonida axborot muhitining globallashuvi yangi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Jumladan, tarixiy haqiqatga oid turli versiyalar va interpretatsiyalar bilan to'yingan axborot maydoni yosh ongida tarixga nisbatan parokandalik, shubha va yotlashuv holatini yuzaga keltiradi [15: 28]. Xususan, ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalayotgan noaniq, emotsional jihatdan boy, biroq analitik asosdan yiroq tarixiy kontentlar tarixiy ongda chuqur dissonans keltirib chiqaradi. Bu o'zgarishlar ijtimoiy-

falsafiy jihatdan qaralganda, tarixiy ongni zamonaviy axborot tizimida shakllantirish muammosi "haqiqat" va "axborot" o'rtasidagi masofaning kengayib borayotganligidan dalolat beradi. Postmodernistik falsafa doirasida tarix bir to'plam matnlar, fragmentlar yig'indisi sifatida talqin qilinayotgan bir vaqtda [16], axborot muhiti aynan shu turdagi pluralizmni legallashtirish vositasiga aylanmoqda. Tarixning bu ko'pvariantlilik talqini esa yoshlar ongida tarixni sistematik tushunish, hodisalar o'rtasidagi sabab-natija bog'liqligini idrok etish imkoniyatlarini zaiflashtiradi.

Boshqa tomondan, milliy tarixiy ongning shakllanishida axborot manbalarining sifati, ularning kontekstual asoslanganligi va mantiqiy izchilligi muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Afsuski, O'zbekiston ta'lim muassasalarida foydalanilayotgan tarixiy darsliklar ko'pincha sxematik, davlatparast pozitsiyada yozilgan bo'lib, yosh avlodga tarixiy tanqidiy fikrlash, savol berish, tarixiy nisbiylikni anglash kabi ko'nikmalarni yetarlicha rivojlantira olmaydi [17: 35]. Shu bilan birga, mustaqil axborot manbalarining kamligi, tarixiy bilimning ijtimoiy tarmoqlardagi "shov-shuvli" ko'rinishi bilan raqobatlasha olmasligi vaziyatni murakkablashtiradi. Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan, tarixiy ongda axborotlar orqali shakllanadigan ideologik dominanta masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot muhiti orqali yoshlar ongiga singdirilayotgan tarixiy obrazlar, qahramonlar, "dushmanlar" obrazi, muhim tarixiy burilishlar haqidagi talqinlar jamiyatning umumiy aksiyalar olamini shakllantiradi. Bu esa Pierre Bourdieu ifodalaganidek, "simvolik kuch" vositasi orqali ijtimoiy maydon ustidan nazoratni mustahkamlaydi va bu jarayonda axborot vositalari ideologik gegemoniyaning markaziy aktoriga aylanadi [18: 72].

O'zbekistonda axborot muhiti va yoshlar tarixiy ongini shakllantirishdagi muammolarni ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan tahlil qilish, milliy tarixiy xotira va tarixiy ong kabi mafhumlarning mohiyatini chuqur anglashni talab etadi. Bu masala nafaqat tarixiy bilimlar berish, balki shaxsning ijtimoiy faollik darajasi, ma'naviy yetukligi va jamiyatdagi o'z o'rnini anglash salohiyati bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli, uni faqat ta'lim yoki ommaviy axborot vositalari masalasi sifatida emas, balki keng ijtimoiy-madaniy kontekstda tahlil etish zarur. Ijtimoiy falsafiy tahlilning bosh nuqtasi sifatida tarixiy ong va tarixiy xotira o'rtasidagi nisbat masalasini ko'rsatish mumkin. J.T. Toshenko ta'rifiga ko'ra, tarixiy ongda shaxs, ijtimoiy guruh yoki millat o'z o'tmishini boshqa sub'ektlarning tarixi bilan taqqoslash orqali tushunish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ammo mazkur ta'rifda "udumlar", "urf-odatlar" kabi umummilliy madaniy jarayonlar individga nisbatan tatbiq etilmoqda, bu esa mafhumning doirasini sun'iy kengaytiradi [19: 89–91]. Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan bunday yondashuv mafhumlar ierarxiyasini buzadi, chunki individual ong – sub'ektiv holat, tarixiy ong esa jamiyat

tajribasining umumlashgan natijasidir. Bu holatda A.V. Guliga va A.X. Samievlarning qarashlari murakkab ongli jarayonni kengroq ifodalashda asosiy metodologik poydevor bo'ladi. Ular ta'kidlashicha, tarixiy ong o'tmish, bugun va kelajak o'rtasidagi bog'liqlikni anglash jarayoni bo'lib, istiqbolni shakllantirishda o'tmishga qaytish, undan saboq chiqarishga asoslanadi [20: 48–51].

Ayniqsa, O'zbekistonda milliy tarixiy xotirani tiklash va yoshlarda tarixiy ongning shakllantirish jarayonlari 1991 yildan keyin yangi bosqichga ko'tarildi. Davlat siyosatida tarixni qayta yozish, yangi milliy tarixiy ramzlar va qahramonlar sistemasini yaratishga qaratilgan keng ko'lamli harakatlar kuzatildi. Biroq bu jarayonda qator ziddiyatlar yuzaga keldi: ilmiy asoslar yetarlicha shakllanmagan sharoitda tarixni faqat ijobiy misollar asosida talqin qilishga urinishlar, muxolif fikrlarga nisbatan murosasiz munosabat, aholining barcha qatlamlarini qamrab olmagan axborot siyosati tarixiy ongning bir yoqlama shakllanishiga sabab bo'ldi. Shu nuqtai nazardan tarixiy ong va tarixiy xotira o'rtasidagi farqni anglash juda muhim. Xotira ma'lumotlarni selektiv tarzda saqlaydi, qayta tiklaydi va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lganlarini ustuvor qiladi. Bunga qarama-qarshi ravishda, tarixiy ong mazkur ma'lumotlar asosida inson va jamiyat faoliyatini yo'naltiradi, anglash jarayonini amalga oshiradi [21: 186–188].

O'zbekistonning axborot muhitida, ayniqsa yoshlar o'rtasida tarixiy ongning shakllanishidagi asosiy muammolardan biri – manbalar tanlanishidagi selektivlik va axborotning noto'liqligi hisoblanadi. Masalan, o'zbek tarixining mustamlakachilik davridagi ko'plab jiddiy muammolari, xalqning qarshilik harakatlari, repressiyalar haqidagi ma'lumotlar hali ham ma'lum ma'noda senzura qilingan holda taqdim etilmoqda. Bu esa yoshlarda o'tmishga nisbatan real qarash shakllanmasligiga olib keladi. Ikkinchi asosiy muammo – ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlari orqali tarqatilayotgan tarixiy ma'lumotlarning tahlilsiz qabul qilinishi. Bu holatda yoshlar ma'lumot manbasini tanish, unga tanqidiy munosabat bildirish qobiliyatiga yetarlicha ega emas. Ta'lim tizimida tanqidiy fikrlash va falsafiy tahlil asosida ta'lim berishning yetishmasligi bu jarayonni yanada kuchaytiradi. Zero, ta'lim tizimi tarixiy ma'lumotlarni real va tanqidiy anglashni emas, balki yod olishga asoslangan modelni ustuvor qiladi [22: 201–203]. Uchinchi masala – axborot muhitining ixtilofliligi. Ya'ni yoshlar bir vaqtning o'zida tarixiy haqiqat haqida mutlaqo qarama-qarshi fikrlar keltirilgan manbalarni qabul qiladi va ularni ajratish, tahlil qilish qobiliyati yetarlicha rivojlanmagan. Bu esa shaxsiy tarixiy ongda turg'un va qarama-qarshi qarashlarning shakllanishiga olib keladi. Shu nuqtai nazardan, tarixiy ongda "o'tmish–bugun–erta" kabi zamonlar qatlami murakkab munosabatda shakllanadi va axborot muhiti uning rivojiga yordam berish o'rniga, aksincha, turg'unlashtiruvchi omilga aylanib



qolishi mumkin. Bu jarayonda ta'lim, falsafiy yondashuv, axborotni saralash va tahlil qilish madaniyati juda muhim ahamiyatga ega.

Tarixiy ong va xotirani milliy g'urur, faqat ijobiy hissiyotlar, "ruhiy ozuqa" bilan bog'lash tendentsiyasi ham tanqidiy ko'rib chiqilishi lozim. Bunday yondashuvda tarixiy xotira faqat bunyodkorlikka xizmat qiladigan mazmunga ega bo'lib qoladi va uning tanqidiy funktsiyasi soya ostida qoladi. Holbuki, tarixdagi xato va muvaffaqiyatsizliklar ham inson tafakkurini boyituvchi, ijtimoiy anglashni rivojlantiruvchi omillar sirasiga kiradi [23: 70–71].

Shunday ekan, O'zbekistonda tarixiy ongni shakllantirish jarayonida axborot muhiti va ta'lim tizimi markaziy o'rin egallashi lozim. Bu jarayonda faqatgina pozitiv mazmundagi ma'lumotlarni emas, balki tanqidiy tahlil, ma'naviy ko'lam, sub'ekt sifatida yoshlarning fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi yondashuv ustuvor bo'lishi shart. Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi muhim xulosalarga kelish mumkin: birinchidan, axborot muhiti va yoshlar tarixiy ongi o'rtasidagi munosabat o'zaro ta'sirli, murakkab va ko'p qirrali bo'lib, bu jarayonni faqat texnologik yoki pedagogik vositalar bilan emas, balki chuqur falsafiy-nazariy asosda tahlil qilish zarur; ikkinchidan, tarixiy ongning barqarorligi va puxtaligi faqat ommaviy axborot vositalari emas, balki ilmiy asoslangan tarixiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan institutsional mexanizmlar orqali ta'minlanadi; uchinchidan, tarixiy haqiqatga oid ko'p talqinlilik sharoitida yosh avlodni tanqidiy tarixiy tafakkur bilan qurollantirish, ular ongida o'z tarixiga nisbatan mas'uliyatli, ammo erkin munosabatni shakllantirish ijtimoiy-falsafiy strategiya darajasida ko'rilishi lozim.

Zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tafakkur doirasida axborot muhitining shakllanishi va uning yoshlar tarixiy ongiga ta'siri masalasi O'zbekiston misolida murakkab, ko'p qirrali va dinamik fenomen sifatida qaralmoqda. Chunki har qanday tarixiy ong, mohiyatan, madaniy-pasportlik shakllanishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, u shaxsning o'z tarixiy manbaalariga, jamoaviy xotiraga, ijtimoiy-huquqiy identifikatsiyaga bo'lgan intilishlarida aks etadi. O'zbekistonning posttotalitar va postkolonial tajribasi zamirida milliy tarixiy ongni shakllantirish doimiy ravishda yangilanib boruvchi axborot kontekstida amalga oshmoqda. Bu esa g'oyaviy kurashlar, qadriyatlar to'qnashuvi, informatsion assimetriya va bilimlar monopoliyasi holatlariga olib kelmoqda. Aynan mana shu murakkab epistemik fon ijtimoiy-falsafiy tahlilni talab etadi.

O'zbekiston axborot muhitini shakllantiruvchi asosiy omillar — davlat siyosiy diskursi, ta'lim tizimi, ommaviy axborot vositalari va ayniqsa, internet tarmoqlari orqali kechayotgan global axborot oqimlaridir. Shu bilan birga, yoshlar orasida yuzaga kelayotgan tarixiy tafakkurdagi dualizm — ya'ni milliy tarixiy konstruktlar va transmilliy g'oyaviy narrativlar o'rtasidagi ziddiyat o'z aksini topmoqda. Tarixiy ong endilikda nafaqat tarixiy faktlar bilan



bog‘liq kognitiv struktura, balki ijtimoiy-aksiyologik maydon sifatida ham shakllanmoqda. Bu esa tarixni bilishning gnoseologik va metodologik asoslarini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Chunki O‘zbekiston sharoitida tarixiy ongga oid rasmiy-davlat narrativlari muayyan ideologik predeterminatsiyaga ega bo‘lib, ular yoshlar ongida selektiv xotira va strategik unutuv (strategic forgetting) hodisalarini keltirib chiqarmoqda [24: 69].

Yoshlar orasida kuzatilayotgan tarixiy indifferentlik yoki utilitar yondashuv, bir tomondan, informatsion haddan tashqari to‘yinganlik, boshqa tomondan esa - tanqidiy tafakkurning yetarli shakllanmaganligi bilan bog‘liq. Tarixiy ongga nisbatan bu kabi munosabatlar, asosan, axborot makonining fragmentarligi va avtoritar ma‘lumot filtrlash mexanizmlari bilan belgilanadi. Ayniqsa, axborot vositalarining tarixi ommaviy madaniyat darajasiga tushirish tendensiyasi mavjud bo‘lib, bu tarixni chuqur falsafiy-estetik anglashdan cheklaydi [25: 41]. Mazkur holatda yoshlar nafaqat tarixiy haqiqatga, balki o‘z shaxsiy va milliy identitetiga nisbatan ham ishonchsizlik muhitida qolmoqda. Natijada, tarixiy ong selektiv emas, balki simulyakr — ya‘ni omma ongida mavjud bo‘lmagan tarixiy konstruktlar asosida shakllanmoqda [26: 119]. Bu esa bizni tarixiy ong va axborot o‘rtasidagi aksiologik aloqani chuqurroq tahlil qilishga undaydi. Axborot muhiti, mohiyatan, qadriyatlar konstruksiyasi va dekonstruksiyasining maydoniga aylanadi. Yoshlar bu maydonda sub‘ektiv tanlov emas, balki algoritmik yo‘naltirilgan axborot asosida harakat qilishmoqda. Shu sababli, tarixiy ongda aksiologik diskurslar — ya‘ni haqiqat, ob‘ektivlik, xotira, ma‘naviyat kabi tushunchalar, postfaktual zamonda ideologik manipulyatsiya obektlariga aylanmoqda [27 : 88]. Ayniqsa, algoritmik seleksiya (ijtimoiy tarmoqlar orqali) tarixiy tafakkurning cheklanishiga olib kelmoqda. Masalan, O‘zbekistonning tarixiy o‘tmishi haqidagi diskussiyalar Facebook, Telegram yoki YouTube kabi platformalarda, ko‘p hollarda, empirik faktlarsiz, afsonaviy va ehtirosli asosda olib boriladi. Bunda tarixning "axborotlashuvi" (informatsionalizatsiyasi) nafaqat bilimning yo‘nalishini, balki uning sifatini ham belgilaydi [28: 163].

Metodologik jihatdan, tarixiy ongni shakllantirishda nafaqat klassik tarixiy yondashuvlar, balki sinergetik, aksiologik va diskursiv metodlar ham joriy etilishi zarur. Chunki mavjud ijtimoiy tafakkurda tarixiy faktning qadriyatga aylanishi - ya‘ni normativ-ma‘naviy konnotatsiyaga ega bo‘lishi, uni oddiy xotira emas, balki jamiyatni ideallashtiruvchi vositaga aylantiradi. Bunda yoshlar uchun tarixiy bilim ijtimoiy kapital, identitet konstruksiyasi va fuqarolik ongining shakllanish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi [29: 88–89]. Shunga ko‘ra, tarixiy ong faqat axborot orqali emas, balki aksiyologik tashabbuslar, madaniy reproduksiya va ijtimoiy refleksiya orqali shakllanishi lozim.

Falsafiy nuqtai nazardan, bu vaziyat ijtimoiy ong va tarixiy xotiraning ontologik va gnoseologik tafovutlarini ochib beradi. O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, tarixiy ong va tarixiy haqiqat o'rtasidagi ziddiyat, bir tomondan, ijtimoiy-iqtisodiy muhit, boshqa tomondan esa - ijtimoiy institutlarning (ta'lim, madaniyat, media) tarixiy ongni qanday ishlab chiqarayotganiga bog'liq. Ayni muammo o'zining eng yaqqol ko'rinishini o'quv darsliklarida, tarixiy film va seriallarda, rasmiy bayonotlarda aks ettirgan tarixiy personajlarning meyorlashgan (normativ) talqinlarida topadi. Bu holat yoshlarning tarixga nisbatan tanqidiy emas, balki rasmiy-ritualistik munosabatini kuchaytiradi [30: 22].

**Xulosa qilib aytganda,** axborot muhiti va yoshlar tarixiy ongini shakllantirishdagi muammolar zahirida chuqur ijtimoiy-falsafiy, gnoseologik va aksiologik qarama-qarshiliklar yotadi. Bu muammolarni hal etishda davlat siyosati, ta'lim tizimi va ijtimoiy institutlar o'z strategiyalarini faqat faktlarni yetkazish emas, balki tanqidiy tarixiy tafakkurni shakllantirishga yo'naltirishlari zarur. Tarixiy ongni shakllantirish nafaqat milliy birdamlikni mustahkamlovchi vosita, balki global epistemologik muhitda shaxsning o'zligini anglash quroli sifatida qaralishi lozim. Shunday ekan, axborot makonidagi islohotlar yoshlar tarixiy tafakkurining mustaqilligini, mustahkamligini va tanqidiyligini ta'minlash yo'lida asosiy vositalardan biri bo'lishi kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Shestakov Yu. A. (2018). The interaction of levels of historical consciousness in the context of the culture of national security. — 15(3), b. 3–10.
2. Leontiev Yu. A. (2022). The problem of the value consciousness formation in the context of the crisis of ideologies. — The Humanities And Social Studies In The Far East, b. 128–133.
3. Ernazarov D. (2023). Özbekistan'da Bilimsel Ateizm Gelişiminin Retrospektif Analizi (XX. Yüzyılın 30'larında). — Kader. Havola.
4. Mukhamedova Z. (2015). Bioethics in Uzbekistan: History, Issues, Prospects. — Asian Bioethics Review, 7, b. 501–511.
5. Mukhamedova Z. (2015). Bioethics in Uzbekistan: History, Issues, Prospects. — Asian Bioethics Review, 7, b. 501–511.
6. Виндельбанд, В. Прелюдии. – М.: РОССПЭН, 2007. – 245 б. – Б. 25.
7. Риккерт, Г. Науки о природе и науки о культуре. – М.: Республика, 1998. – 256 б. – Б. 103.
8. Шелер, М. Избранные произведения. – М.: Наука, 1994. – 480 б. – Б. 141.
9. Блок, М. Апология истории, или ремесло историка. – М.: Наука, 2004. – 160 б. – Б. 57.

10. Коллингвуд, Р. Дж. Идея истории. – СПб.: Ювента, 1997. – 311 б. – Б. 65.
11. Уайт, Х. Метаистория. – М.: Языки славянской культуры, 2004. – 352 б. – Б. 91.
12. Микешина, Л. А. Эпистемология ценностей. – М.: Прогресс-Традиция, 2007. – 352 б. – Б. 260.
13. Ивин, А. А. Ценности и понимание // Вопросы философии. – 1987. – № 8. – Б. 31–43.
14. To'xtayev A. (2021). Tarixiy ong va axborot muhitining yoshlar tafakkuriga ta'siri. Ijtimoiy fanlar jurnali, №2. – Б. 17.
15. Karimov D. (2019). Tarixiy ongda globallashuv ta'siri. Sharqshunoslik ilmiy jurnali, №3. – Б. 28.
16. Barthes R. (1994). S/Z. Moskva: Progress. – Б. 112.
17. Sultonova M. (2022). Tarix va identitet muammolari. Axborot va Jamiyat, №1. – Б. 35–36.
18. Bourdieu P. (1991). Language and Symbolic Power. Cambridge: Polity Press. – P. 72.
19. Тошенко Ж.Т. Социология памяти. – М.: Наука, 2001. – 168 б. (Б. 89–91).
20. Гулига А.В. Историческое сознание и общественное бытие. – М.: Наука, 1982. – 128 б. (Б. 48–51).; Самиев А.Х. Ижтимоий фалсафа асослари. – Тошкент: Университет, 2018. – 144 б. (Б. 99–100).
21. Гозиев Э.Ф. Психология фанининг назарий асослари. – Тошкент: Мухаммад ал-Хоразмий, 2006. – 240 б. (Б. 186–188).
22. Петровский А.В. Психология личности. – М.: Просвещение, 1985. – 304 б. (Б. 201–203).
23. Алимова Д. Хотира ва тарихий англаш: назарий асослар. – Тошкент: Фан, 2020. – 104 б. (Б. 70–71).
24. Карагодин А.И. Философия истории В.О. Ключевского. — Саратов, 1976. — Б. 69.
25. Александров В.Б. Культура и историческое познание. — Калинин, 1986. — Б. 41.; Барг М.А. О некоторых предпосылках формализации исторического исследования // Проблемы всеобщей истории. — Казань, 1967. — Б. 37.
26. Жуков Е.М. История и теория исторического познания. — М., 1983. — Б. 119.
27. Межуев В.М. Философия истории и историческая наука // Вопросы философии. — 1994. — № 4. — Б. 88.
28. Сапронов М.В. Синергетический подход в исторических исследованиях // ОНС. — 2002. — № 4. — Б. 163.

29. Фирсов А. Категория «ценность» и историческая наука: дис. ... канд. филос. наук. — Саратов, 1997. — Б. 88–89.

30. Шубина М.П. О субъективном смысле в историческом познании // Историческая наука в изменяющемся мире. — Казань, 1993. — Б. 38